

ANNOTATION

It is known that modern manufactured medicines at all pharmaceutical enterprises around the world consist of plant raw materials, which directly increases the need for plants whose composition is rich in medicinal and mineral substances. In the Republic, in this regard, in recent years, consistent reforms have been carried out on the protection of medicinal plants, the rational use of Natural Resources, the organization of plantations where medicinal plants are grown and their processing. However, it is also no secret that the demand for natural vitamin foods, which is one of the biggest problems nowadays, is growing. Therefore, nowadays there are several natural food plants and fruits, in particular figs (*Ficus carica* L. particular attention is paid to the cultivation of both).

Anjirning vatani Kichik Osiyodir. Anjir – tutdoshlar (anjirgullilar) oilasiga mansub subtropik meva hisoblanadi. MDH davlatlari orasida u Oʻrta Osiyoda, Janubiy Qozogʻiston, Qrim, Kavkaz, Moldaviyada va Rossiyaning Krasnodar oʻlkasida tarqalgan. Shuningdek, Turkiya, Jazoir, Yevropaning janubida, AQShda katta maydonlarda yetishtiriladi. Yovvoyi holda Oʻrta dengiz boʻyi, Kichik Osiyo, Eron, Shimoli-gʻarbiy Hindistonda oʻsadi. Anjir juda qadimdan madaniylashtirilgan oʻsimlik hisoblanadi (Osiyoda 5 ming yildan, Yevropada kamida 2 ming yildan buyon) yetishtiriladi. Oʻzbekistonda asosan, Fargʻona vodiysida ekiladi.

Oʻrta osiyo hududida anjirning ikki turi uchraydi, bular oddiy anjir (*Ficus carica* L.) va Afgʻon anjiri (*F. afghanistanica* Warb.) . Anjir oʻsimligining asosan (*Ficus carica* L.) turi Surxondaryo viloyatining Toʻpalang, Sangartak botanik geografik rayonida koʻplab uchraydi.

Anjirning bachki novdalaridan yaxshi hosil beradigan navlaridan bogʻlarda 4x3 m (gektariga 833 ta) va 5x4 m (gektariga 500 ta) sxemada bir tanali qilib oʻstirilganda yaxshi hosil beradi. Oʻsimliklarga yorugʻlik bir tekis tushib turishi uchun yer maydonining joylashish holatiga qarab, shimoldan janubga qaratib yoki shunga yaqinroq qilib ekiladi, qatorlar yoʻnalishini sugʻorish ariqchalariga moslashtirish zarur. Anjir barglarini toʻkib, tinim davriga kirgandan soʻng, tuplarni kuzda koʻmishdan oldin bir yillik novdalaridan 20-25 sm uzunlikda qalamchalar tayyorlanadi. Qalamchalar 50 donadan bogʻlanib, 50-60 sm chuqurlikda yerga koʻmiladi va ustiga polietilen plyonka tortilib, tuproq tashlanadi. Erta bahorda kunlar isishi bilan yer tayyorlanib, 70x10 sm sxemada egatlarga ekiladi va yil davomida parvarishlash ishlari olib boriladi. Bogʻ yaratish uchun ikki yilda standart anjir koʻchatlari tayyor boʻladi. Anjir tuplari erta bahorda tuproqdan ochilganda ildiz boʻgʻzidan chiqqan bachki novdalaridan ildizi bilan olib ham koʻchat tayyorlash mumkin. Bir yillik qalamchalarni uy sharoitida shisha idishlarda koʻpaytirishda shisha idishga suv solib, qalamchalarni 4-5 donadan kurtak qoldirilib kesib olinadi va bitta shisha idishga 3-4 dona qalamcha solinib, suvga yarim tabletka faollashtirilgan koʻmir tashlanadi. Koʻmir suv buzilishining oldini oladi va ildiz hosil qiluvchi hujayralarning shakllanishiga yordam beradi. Shisha idishdagi suv har kuni bir marotaba almashtirib turiladi. Ikki uch haftadan soʻng, ildizlar hosil boʻla boshlaganda har biri alohida, gumus va tuproq solinib tayyorlangan tuvakchalarga oʻtkazilib parvarishlanadi.

Bizning tajribamizda Termiz davlat universiteti tabiiy fanlar fakulteti botanika tajriba uchastkasida mart oyining birinchi haftasida anjir daraxtining ildiz boʻgʻzidan olingan bachkilaridan olib ekilganda mart oyining toʻrtinchi haftasida dastlabki 5-7 boʻlakli panjasimon barglar hosil qildi. Kech kuzda yaʼni oktyabr oyining oxirida tayorlanib, yerga koʻmib qoʻyilgan anjir qalamchalari aprel oyining ikkinchi haftasida dastlabki barglarini hosil qildi. Ayni shu mart oyida olingan anjir qalamchalari tuproq sharoitida ekilganda esa unuvchanlik kuzatilmadi. Hozirgi kunda anjirni koʻpaytirishda biogumusli sharoitda urugʻ unuvchanligi toʻgʻrisida izlanish olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyaotlar

1. Ashurmetov O. A., To‘xtaev B. Y. Dorivor o‘simliklar introduktsiyasining tarixi, muammolari va istiqbollari // O‘simliklar introduktsiyasi: muammolari va istiqbollari: Respublika ilmiy - konferensiya materiallari. . –Xiva: XMA, 2003. – B. 12-15.
2. Mamikova R. U. Introduksiya lekarstvennykh rasteniy v predgornoy zone yuga Kazaxstana.: Dis. ... kand. biol. nauk. –Tashkent: AN RUz. 2005. –23 s.
3. Yusupov I. I. et al. TO REDUCE GLOBAL CLIMATE ISLAND FOCUSED LOCAL COOPERATION //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 11. – С. 501-507.
4. Jalilovna Q. N. et al. HIMOYA GAZLARI MUHITIDA PAYVANDLASHDA MEHNAT MUHOFAZASI //Archive of Conferences. – 2021. – Т. 13. – №. 1. – С. 47-48.
5. Кобулова Н. Ж., Нарзиев Ш. М. ХОДИМЛАРНИНГ МЕХНАТИНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ //Здравствуйте, уважаемые участники международной научной и научно-технической конференции, дорогие гости. – 2021. – С. 485.
6. Кабулова Н. Ж. Традиционно-национальный узбекский головной убор мужчин (тюбетейка-дуппи) ферганской долины //Universum: технические науки. – 2020. – №. 8-2 (77). – С. 10-12.
7. Mentges G. Textile legacies in motion. Introductory remarks //Modernity of Tradition: Uzbek Textile Culture Today. – 2013. – С. 7.
8. Razzakova G. The application of information technologies in information technology training //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2021. – Т. 11. – №. 11. – С. 299-301.